

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIKANING TUTGAN O'RNI
(DIGNITONIM VA FALERONIMLARNING LEKSIK, SEMANTIK XUSUSIYATI
MISOLIDA)**

Xusanova Mahliyo Abdunazarovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21369099>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilshunosligida onomastikaning tutgan o'rni, onomastika fanining tarmoqlari va uning o'rganish obyektlari haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga onomastik birlik sifatida dignitonim va faleronimlarning lingvistik va semantik xususiyatlari, o'rganilish taraqqiyoti hamda dignitonim va faleronimlar haqida imiy izlanishlar olib borgan olimlar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: antroponimika, dignitonimika, faleronimika, termin, onomastik leksika, leksik birlik, ideonimika

O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti ko'p asrlik tarixga va taraqqiyot davriga ega bo'lib hozirgi kunga qadar tilimizning barcha sathlari va birliklarida keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o'zbek onomastikasi xususan, toponimiya, antroponimiya va boshqa ko'plab sohalarining rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Til tizimida atoqli otlar alohida o'rin tutadigan lisoniy hodisa sanaladi. Tilimizda mavjud bo'lgan ismlar, joy nomlari, harakatlar, va boshqa voqeliklarni bildiruvchi so'zlar mavjud. Shuningdek, shaharlar, ko'chalar, okeanlar, suv omborlari, tog' tizmalari, hayvonlar va odamlarning nom va ismlari borki, bu nomlarning xilma-xilligi va ularning keng tarqalishi tilshunoslikning alohida bo'limi-onomastikaning paydo bo'lishiga olib keldi. XX asrning 60-70- yillarida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar, jumladan, o'zbek onomastikasi paydo bo'ldiki, bu yo'nalish hozirgi kunda tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi[5.6b]. Dastlab, o'zbek nomshunosligi bir qancha tarmoqlar va bo'limlarga bo'lib o'rganilgan. Bu sohalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar toponimika, antroponimika, gidronimiya, etnonimiya bilan cheklangan bo'lsada, bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlar o'zbek onomastikasining keng ko'lamli cho'qqilarini ochib berdi.

Onomastika– (yunonch-nom berish san'ati) tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'lim. Ayrim manbalarda "Onomastika" termini o'rniga "Antroponimika" ma'nosi ham ishlatiladi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlarga bo'linadi.

Antroponimika – kishilarning atoqli nomlari;

Toponimika– geografik obyektlarning atoqli nomlari;

Teonimika– turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudodlarning nomlari;

Zoonimika– hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlar;

Kosmonimika– fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari;

Astronimika– ayrim osmon jismlari (planet va yulduzlar)ning nomlarini o'rganuvchi bo'lim. Onomastikaning yuqorida keltirilgan bo'limlaridan tashqari yana bir qancha bo'limlari mavjud.

Onomastik birliklar tildagi atqli ot turlarining to'plami bo'lib, ularning keng va tor ma'nolari mavjud. Onomastik ko'lamlar superko'lam, makroko'lam, mikroko'lam yana kichikroq ko'lamlarga bo'linib o'rganiladi. Onomastik ko'lamni tashkil etuvchi makroko'lamlarga antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar, gidronimlar, mifonimlar, poreyonim, ideonimlar kiradi. Antroponimlar, toponimlar, gidronimlar va ideonimlar tarkibini atqli atqli otlarga boy bo'lgan mikroko'lamlar tashkil qiladi. Bu makroko'lamlar bo'yicha olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek onomastikasining superko'lamiga kiruvchi 22 ta makroko'lamdan birini ideonimlar tashkil qiladi. Ideonimlar (yunoncha- idea g'oya+noma -atqli ot) tarixiy asarlar, hujjatlarning atqli oti.

Insonning aqliy, g'oyaviy va badiiy faoliyatining mahsuli bo'lgan tarixiy, badiiy asarlar, hujjat, unvon, orden, medallarning atqli nomlari ideonimlar hisoblanadi. Ideonimlarni tasnif etganda, uning mikroko'lamiga alohida e'tibor qaratamiz va quyidagilarni kiritamiz:

Ktematonim–xalq tarixi, milliy madaniyati uchun ma'lum qimmatga ega bo'lgan ba'zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning bir donasiga berilgan atqli ot.

Geortonim–har qanday bayram, festival, xotira kunlari, marosim va tadbirlarga berilgan atqli otlar. Navzro'z bayrami, Ramazon hayiti kabi.

Dokumentonim– xalq tarixi uchun alohida ahamiyatga ega hujjatlar nomi. Mustaqillik deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Gameronim– matbut organlari(gazeta, jurnal, axborot va boshqalar), “Xalq so'zi”, “Yangi O'zbekiston” (gazeta).

Artionim– tasviriy san'at asarlari (rang-tasvir, grafika, plastika va boshqa). “Mona Liza”

Biblionim– har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo'yiladigan atqli nom.

Masalan, “Xamsa”, “O'tmishdan ertaklar” asarlarining oti.

Musiq san'at asarlari– (kuy, ashula, qo'shiq va boshqalar). “Munajat”, “Ushshoq” kabi.

Dignitonim – faxriy unvonlar, mansablarning atqli oti. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Qahramoni kabi.

Faleronim– har qanday orden, ko'krak nishoni, medallarning atqli otidir. “Do'stlik” ordeni, “Shuhrat” medali[1.11b].

Ilmiy manbalarda tilga olinsa-da, ilmiy o'rganilmagan atqli ot turlaridan biri dignitonimlardir. Dignitonim lotin tilidagi “dignitas” so'zidan olingan bo'lib, “qadr-qimmat, xizmat yoki taqdirlashga loyiq ish” ma'nolarini anglatadi. Dignitonim fransuz tilida esa “dignite” “unvon”, “mansab” ma'nosini bildiradi. Dignitonimlar yuqori ijtimoiy maqomni, unvonni yoki shaxsiy yutuqlarni ifodalovchi maxsus nomlar [1.12b]. Ular ko'pincha shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini belgilaydi. Masalan, “Professor”, “Doktor”, “Senator” kabi. Dignitonimlarning vazifasi: shaxsning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish yoki ma'lum bir soha yuzasidan erishgan yutuqlarini tan olishdir. Dignitonimlar 5 guruhga ajratiladi bular:

Oliy unvon

Faxriy unvon

Ilmiy unvon

Harbiy unvon

Diniy unvonlar [1.15b].

Ma'lumki, orden, unvon, medallar o'zining rivojlanish davriga ega. O'zbek tilida mansab-unvon nomlari tadqiq etilib, diaxron aspektda yoritilgan, ammo unvon nomlari alohida shaklda tadqiq qilinmagan. Mahmud Koshg'ariy, I. Berezen, B. Grekov, L. Budagov, V.Bartold, A. Semyonovasarlarida unvon-mansablarning shakllanishi va taraqqiyot omillari yoritilgan.

H. Dadaboyev, N.Ahmatov, Z.Xolmanova, A. O‘rozboyev kabi o‘zbek olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan mansab va unvon nomlari qisman o‘rganilgan[1.13b]. Ijtimoiy-siyosiy tushunchani ifodalovchi mansab-martabani bildiruvchi leksemalarni Z.Xolmanova kichik 6 guruhga ajratadi. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik -semantik tarkibi mavzusida A. Mo‘minova tadqiqot olib borib, unvon nomlarini ma‘nosiga ko‘ra 3 guruhga, oliy unvonlar, faxriy unvonlar, maxsus unvonlarga ajratadi. O‘zbek nomshunos olimlaridan E. Begmatov shunday ta’kidlagan “onomastik birliklarning ba’zi tiplari atoqli ot sifatida ma’lum bo‘lsa-da, ular deyarli tahlil qilinmagan: gemeronim, geortonim, dignitonim, ideonim, faleronim, agionim, anemonim kabilar hisoblanadi.

Ammo ularning nomi esa onomastic mikroko‘lamlar safiga kiradi”[1.13b]. Faleronimlar esa har qanday buyruq, medal, nishon belgisining atoqli otlaridir. Faleronimlar yurt ravnaqi yo‘lida mardonavor xizmatlari uchun yoki yaratgan ixtirolari uchun ma’naviy-moddiy jihatdan davlat yoki ma’lum tashkilot tomonidan rag‘batlantirish sifatida taqdim etiladi. Faleronimlar insonlarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni va vatanparvarlik, o‘z ishiga nisbatan sadoqatni oshirishga xizmat qiluvchi muhim omildir. Faleronimlar ma’no jihatidan 4 guruhga bo‘linadi:

Orden – “Amir Temur” ordeni; “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni; “El-yurt hurmati” ordeni; “Jaloliddin Manguberdi” ordeni; “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni; “Mehnat shuhrati” ordeni; I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni; I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni; “Do‘stlik” ordeni; I va II darajali “Salomatlik” ordeni; “Mardlik” ordeni; “Imom Buxoriy” ordeni.

Medal- “Jasorat” medali, “Sodiq xizmatlari uchun” medali, “Kelajak bunyodkori” medali, “Shuhrat” medali, “Sog‘lom turmush” medali.

Faleronimlarning ko‘proq ta’sis etilgan turi bu– ko‘krak nishonlaridir.

Ko‘krak nishon-“O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni, “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoni, “Ilg‘or fermer” ko‘krak nishoni, “Mehnatkash dehqon” ko‘krak nishoni, “Namunali tomorqachi” ko‘krak nishoni, “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni, “Jismoniy tarbiya va sport a‘lochisi” ko‘krak nishoni, “Xalq ta’limi fidoyisi” ko‘krak nishoni, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni, “O‘zbekiston Respublikasi o‘rmon xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni, “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni va boshqa ko‘krak nishonlar ta’sis etilgan[1.18b].

Mukofot – Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofotlari va boshlarni kiritish mumkin.

So‘nggi vaqtlarda tilshunoslida faleronim birliklar tadqiqiga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, Jahon Tilshunosligida A.Superanskaya, T.Shmeleva va o‘zbek tilshunosligidan E.Begmatovlar o‘z ishlarida lisoniy jihatdan tahlil qilishgan va ma’lumotlar berishgan.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligida o‘rganilmagan va olimlar tomonidan o‘rganilib kelinayotgan mavzular hamda dolzarb masalalar mavjud. Shular jumlasiga dignitonim va faleronimlar ham kiradi. Dignitonim va faleronimlar xalqimizning milliy an‘ana va tarixini aks ettiruvchi manba hisoblanadi. Ular qadim zamonlardan buyon insonlar orasida mavjud bo‘lgan. Hozirgi kunda ham Ilm-fan, axborot texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ixtiro va kashfiyotlarning yaratilishi va munosib rag‘batlantirilishi bu albatta quvonarlidir. Bu jarayonlar kelgusida bajariladigan tadqiqotlar uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Dignitonim va faleronimlarning bugungi kunda ahamiyati yuqori, tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraganda onomastikaning asosiy bo'lagi va jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy yuksalishi uchun muhim manbalarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi – Toshkent: Fan, 2013. – 42b.
2. Kilichev B. Onomastika o'quv qo'llanma. Buxoro, 2023. – 180b.
3. Mo'minova A. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tahlili: fil.f. nom. diss. – Toshkent, 2000. -155b
4. Xusanova M. O'zbek tilidagi dignitonim va faleronimlarning lisoniy xususiyatlari: filol. f.f doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Guliston, 2024.B.49
5. Xusanov N. O'zbek antroponimlari – Toshkent, 2014. – 78b.